Ismoilov Davronbek Iloxomjon o'g'li	
Yashil obligatsiyalar va barqaror moliyalashtirishning davlat qarzi siyosatiga ta'siri.....	893
Tilabov Nasrulla Tashmurotovich	
Модели Альтмана и Таффлера как инструмент диагностики финансовой устойчивости предприятий.....	897
Утемуратова Бибихон Даниловна	
Individual tadbirkorlik va mustaqil bandlik asosida olinadigan daromadlarni soliqqa tortishning fundamental asoslari.....	903
Yakubov San'abek Ravshanbekovich	
China's trade relations with Central Asia: an empirical analysis based on the trade gravity model.....	912
Ye Maoqing	
O'zbekistonda turizm sohasida smart texnologiyalar joriy etishning holati va yo'nalishlari.....	920
Qutfiddinov Shamsiddin Kamoliddin o'g'li	
Application of modern information systems in the assessment of the technical condition of the equipment of electrical energy networks.....	924
Sobirov Muzaffar Azatovich	
Стратегическое управление экономическим потенциалом Узбекистана.....	932
Садуллаева Муслимахон Саидамировна	
Auditda raqamli texnologiyalarni qo'llash tarixi va istiqbollari.....	936
Muydinov Erkin Djamaldinovich	
Bank majburiyatlari va aktivlarining vaqtinchalik nomutanosibliklari riskini kamaytirish.....	940
Ibrohimov D.M.	
Priority directions and legal bases of improving of the tax system of the Republic of Uzbekistan.....	945
Sadikov Iskandar Gayratovich	
Kambag'allikni qisqartirishda tadbirkorlik va bandlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash.....	950
Karshiyev Keldiyor Eshpulatovich	
O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish uchun ijtimoiy himoya va mehnat bozoriga kirishni kuchaytirish.....	954
Mamashokirova Iroda Samar qizi	
Soliq ma'murchiligi va raqobat muhitining o'zaro bog'liqligini nazariy asoslari.....	958
Donaboyev Jahongir Husan o'g'li	
Региональный туристский кластер – как инструмент повышения эффективности экономики региона.....	965
Юсупова Нигина Тажиевна	
Bank tizimida esg omillarining samaradorligini oshirishda marketing tadqiqotlaridan foydalanishning nazariy va uslubiy asoslari.....	971
Xoliyorov Murod Qahramon o'g'li	



Теоретические взгляды на цифровую экономику, цифровую трансформацию	977
Шарипова Шахло Истамовна	
Qoraqalpog'iston Respublikasining raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatlari va strategik yo'nalishlari.....	982
Tleubergenov Raxat Shahibaevich	
Mintaqalar transport tizimini kompleks rivojlantirish istiqbollarini tadqiq etishning ilmiy-uslubiy asoslari.....	986
Rahmonov Rasul Ne'matovich	
Loyiha boshqaruvida amaliy misollar orqali jinoyat holatlarini tahlili.....	994
To'yqulov Abbosjon Ali o'g'li	
Advancing tourist safety management in Uzbekistan's growing tourism industry: a systems theory approach.....	999
Laylo Primova	
Qoraqalpog'iston Respublikasida maishiy xizmatlar sifatini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishdagi muammolar.....	1006
Yerejepova Bibisara Abibullayevna	
Основные проблемы и вызовы в создании умных городов	1010
Хакбердиева Нозима Кахрамоновна	
Qurilish obyekti smeta narxlarini aniqlashdagi muammolar va ularning oqibatlarini.....	1015
Asadova Maftuna Sa'dullaevna	
Mintaqani barqaror rivojlantirishda paxta-to'qimachilik klasterlari salohiyatini oshirish.....	1020
Ismailov Temur Pulatovich	
Paxta-to'qimachilik klasterlari samaradorligi: statistik ko'rsatkichlar va ekonometrik modellarning tahlili	1024
Sharipov R.S.	
Sanoat infratuzilmasining tarkibiy tuzilishi va tartibga solish mexanizmlari.....	1030
Rasulov Jamshid Karimovich	
To'qimachilik sanoati korxonalarida eksport salohiyatini rivojlantirishda boshqaruv jarayonlarini o'ziga hos xususiyatlari.....	1036
Salimjonova Zilolaxon Salimjon qizi	
Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi tomonidan so'ngi yillarda amalga oshirilgan ishlar moliyaviy tahlili	1040
Sherjonov Sherjon Alijan o'g'li	
Qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarining rivojlanishni boshqarish tizimini takomillashtirish.....	1045
Smetov Murat Inyatovich	
Sanoat investitsion salohiyatini amalga oshirish mexanizmining mahalliy va xorijiy tajribalarini qiyosiy tahlili.....	1050
Bayniyazova Malika Polatovna	
Korxonalarda raqamli marketing strategiyalarining shakllanishi va ularning bozor raqobatbardoshligiga ta'siri.....	1056
Mamadjanova Tuyg'unoy Axmadjanovna	
Руководство страховыми операциями: стратегический подход	1062
Тулаев Дилшод Юсуфович	
Sanoatni rivojlantirishda innovatsion boshqarishni takomillashtirish strategiyasi.....	1068
Qalmuratov Baxtiyar Seytmuratovich	
Tijorat banklari faoliyatida raqamli chakana xizmatlarni takomillashtirish yo'llari.....	1073
Axmedov G'ofurjon Gulomjonovich	
Maktab o'quv dasturlariga turizm va mehmondo'stlik tarmog'ini integratsiyalashning soha rivojidadagi ahamiyati	1078
Nilufar Raxmonova Yorqinovna	
Namangan viloyatidagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari salohiyati.....	1083
Abdusattorov Sodiqjon Hakimjon o'g'li	



Инновационные подходы к обеспечению экологической и экономической устойчивости в области энергосбережения и эффективного управления водными ресурсами	1088
Бегмуллаев Отабек Ирисалиевич, Ешмирзаев Содикжон Еркинбой угли, Кохарова Далира Рустам кизи	
Kimyo sanoati korxonalarida investitsion loyihalarni boshqarish orqali raqobatbardoshlikni oshirish.....	1095
Sabirov Oybek Shavkatbekovich	
Зеленая экономика и устойчивое развитие: экономический взгляд.....	1100
Акбаралиева Сугдиёна Улугбек кизи, Ахмедиева А.Т.	
Raqamli iqtisodiyot orqali investitsiyalarni jalb qilish va O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish istiqbollari.....	1105
Norpo'latov Azizbek Baxtiyor o'g'li	
Инновационные факторы развития аграрного производства региона.....	1109
Сирожиддинов Икромиддин Кутбиддинович	
Анализ развития зеленой экономики в глобальном контексте и в Республике Узбекистан.....	1114
Хусаинов Равшан Рахимович	
Marketing jarayonlarida emotsional intellektning roli va uning neyromarketing strategiyalari samaradorligiga ta'siri	1120
Pulatova Nigoraxon Nurullaevna	
O'zbekiston hududlarida aholi bandligi tahlili (2020–2024-yillar).....	1124
Hojiyev Tal'at Toshpo'latovich	
Barqaror qishloq xo'jaligida yashil logistika (Green Logistics) mexanizmlarini joriy etish.....	1128
Abdirashidov Temurbek Abdirashid o'g'li	
Innovatsion iqtisodiyotda karshering xizmatlarining nazariy asoslari.....	1134
Haydarov Jahongir Aktamovich	
Mintaqada mehmonxona xo'jaligida investitsiya samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar	1139
Jasur Berdiyev	
Turizm xizmatlari samaradorligini oshirish metodologiyasini rivojlantirish	1143
Toshev Nurbek Janon o'g'li	
Iqtisodiy barqarorlikka erishishda quyosh panellarining roli	1147
Qodirov Bahodirjon Tursunovich	
Milliy malaka tizimining yagona raqamli platformasi: nazariy va amaliy jihatlar.....	1152
Qurbanova Muazzam Fazliddinovna, Egamkulov Aziz Abdurasulovich	
Surxondaryo viloyatida meva-sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonlarini ARIMA modeli orqali ekonometrik modellashirish	1156
Jo'rayev Olim Albayevich	
Tijorat banklarida korporativ boshqaruv mohiyatini aniqlashning ilmiy yondashuvlari.....	1163
Temirov Abdulaziz Alimjanovich	
Asosiy vositalarni hisobga olish va ularni audit qilish masalalari: nazariy va amaliy yondashuvlar	1168
Diyorbek Mamarasulov Alijon o'g'li	
Анализ и постановка выбора путей подготовки и принятия решений для разработки и внедрения методических подходов к постановке управленческого анализа.....	1173
Минутдинова Лилия Тагировна	
Аksiyadorlik jamiyatining aksiyadorlar bilan o'zaro hamkorlik shakllari va tamoyillari tasnifi.....	1180
Sangilova Aziza Baxtiyarovna, Samariddin Elmirzayev	
Qishloq joylarida xizmatlar sohasini rivojlanishi orqali kambag'allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirish.....	1186
Sultonov Shodiyor Abduhalilovich, Usmonov Murodbek Dusmurot o'g'li	
Kichik biznes markazlari raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha uslubiy tavsiyalar	1190
Eshmirzayev Nodirjon Mamadraximovich	



KICHIK BIZNES MARKAZLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH BO'YICHA USLUBIY TAVSIYALAR

Eshmirzayev Nodirjon Mamadraximovich

Namangan davlat texnika universiteti doktoranti

Email: nodirshoh79@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada milliy iqtisodiyotda kichik biznes markazlari faoliyatini takomillashtirish, ularning raqobatbardoshligini oshirish va samaradorligini ta'minlash masalalari yoritilgan. Xorijiy tajribalar tahlil qilinib, O'zbekiston sharoitida kichik biznes markazlarini rivojlantirish uchun uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Shuningdek, raqamli texnologiyalardan foydalanish, outsorsing xizmatlarini joriy etish va innovatsion biznes-modellarni qo'llash orqali kichik biznes markazlarining iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoniyatlari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: kichik biznes markazlari, raqobatbardoshlik, innovatsiya, outsorsing, buxgalteriya markazlari, raqamli iqtisodiyot, biznes-inkubator, akselerator, xizmatlar bozori.

Abstract: The article highlights the issues of improving the activities of small business centers in the national economy, increasing their competitiveness, and ensuring efficiency. Foreign practices are analyzed, and methodological recommendations for the development of small business centers in Uzbekistan are proposed. The paper substantiates the opportunities to enhance economic efficiency of small business centers through the use of digital technologies, outsourcing services, and innovative business models.

Key words: small business centers, competitiveness, innovation, outsourcing, accounting service centers, digital economy, business incubator, accelerator, service market.

Аннотация: В статье освещены вопросы совершенствования деятельности центров малого бизнеса в национальной экономике, повышения их конкурентоспособности и обеспечения эффективности. Проанализирован зарубежный опыт и разработаны методические рекомендации по развитию центров малого бизнеса в условиях Узбекистана. Также обоснованы возможности повышения экономической эффективности центров малого бизнеса за счет использования цифровых технологий, внедрения аутсорсинговых услуг и применения инновационных бизнес-моделей.

Ключевые слова: центры малого бизнеса, конкурентоспособность, инновации, аутсорсинг, бухгалтерские центры, цифровая экономика, бизнес-инкубатор, акселератор, рынок услуг.

KIRISH

Bugungi globallashuv va raqobat kuchaygan sharoitda kichik biznes markazlari milliy iqtisodiyotda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ular nafaqat tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash, balki innovatsion tashabbuslarni rag'batlantirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va xizmatlar sifatini oshirish orqali raqobatbardosh muhitni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, kichik biznes markazlari samarali faoliyat yuritganda, ular hududiy iqtisodiyotning barqaror o'sishiga, yangi ish o'rinlari yaratishga hamda resurslardan oqilona foydalanishga sezilarli hissa qo'shadi.

O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yalpi ichki mahsulotda salmoqli ulushga ega bo'lib, davlat tomonidan mazkur yo'nalishga keng ko'lamli imtiyoz va imkoniyatlar yaratilmoqda. Shu bilan birga, biznes markazlarining to'liq salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun uslubiy yondashuvlarni takomillashtirish, xalqaro amaliyotdagi ilg'or tajribalarni moslashtirish hamda zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish zarur.

Shu nuqtayi nazardan, kichik biznes markazlari raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb vazifa hisoblanadi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik biznes markazlari va ularning iqtisodiy hududlar bo'yicha samaradorligini tushunishda Michael Porter 1990-yildagi nuqtayi nazariyasi muhim poydevor vazifasini bajaradi. Porter klasterlar, sanoat tarmog'ining hududiy konsentratsiyasi va ular orqali hosil bo'ladigan raqobatbardoshlik mexanizmlarini tahlil qiladi. Shu nuqtayi nazardan, kichik biznes markazlari mahalliy resurslarni birlashtirib, bilim va infratuzilma spillover'larini rag'batlantirish orqali hududiy raqobatbardoshlikni oshirishi mumkin.

Tajriba va empirik adabiyotlarda biznes inkubatorlari va turli tipdagi qo'llab-quvvatlash institutlarining startap va kichik korxonalar muvaffaqiyatiga ta'siri keng muhokama qilingan. Hackett va Dilts 2004-yilda inkubatsiya jarayonining nazariy modellarini, inkubatorlar konfiguratsiyasi va ularning natijalari o'rtasidagi munosabatlarni tizimli ravishda ko'rib chiqqan. Ularning tahlillari shuni ko'rsatadiki, inkubatorlarning seleksiya siyosati, monitoring va resurslarning muqarrarligi inkubatsiya samaradorligini belgilovchi asosiy omillardir. Bu xulosalar kichik biznes markazlarining xizmat paketlari va monitoring mexanizmlarini takomillashtirish zaruratini asoslaydi.

Texnologik va raqamli omillar kichik biznes markazlari orqali kichik va o'rta bizneslar raqobatbardoshligini oshirishda asosiy rol o'ynaydi. OECD 2025-yilgi hisobotiga ko'ra, raqamlashtirish kichik korxonalarga yangi bozorlarga chiqish, operatsion samaradorlikni oshirish va innovatsiyalarni joriy etishda sezilarli imkoniyatlar beradi. Shu bilan birga, qabul qilishdagi to'sqinliklar (ma'lumotlar, qobiliyatlar, moliyalashtirish) siyosiy choralarni talab qiladi. Shunga o'xshash ravishda, SME Competitiveness Outlook 2025 digital transformatsiyani kichik bizneslar raqobatbardoshligini oshirish uchun yo'l xaritasi sifatida ta'kidlaydi va qo'llab-quvvatlash institutlarining raqamli xizmatlarni integratsiyalash zarurligini ko'rsatadi. Bu holat kichik biznes markazlari faoliyatini raqamli xizmatlar, masalan elektron konsalting, onlayn o'quv modullari va elektron savdo qo'llanmalari bilan boyitish zaruratini ko'rsatadi.

Mintaqaviy va milliy kontekstga oid tadqiqotlarda O'zbekistondagi kichik biznesni rivojlantirish siyosatlari va muammolari haqida tahliliy materiallar mavjud. UNDP Uzbekistan 2009-yilda taqdim etgan siyosat hujjatlarida "bitta oyna" (one-stop shop) tizimlarini joriy etish va biznesni qo'llab-quvvatlash institutlarini kuchaytirish bo'yicha tavsiyalar berilgan. Mahalliy tadqiqotlar esa kichik biznes markazlarining hududiy mexanizmlarga moslashtirilgan yondashuvini zarurligini ko'rsatadi. Ushbu qatlamlashgan adabiyotlar kichik biznes markazlarining metodologik va institutsional jihatlarini moslashtirish bo'yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqishda mantiqiy asos yaratadi.

Umuman olganda, adabiyotlar quyidagi asosiy nuqtalarni tasdiqlaydi: kichik biznes markazlari hududiy resurslar va klaster imkoni sifatida raqobatbardoshlikni oshirishi mumkin; inkubatsiya va monitoring amaliyotlari ularning natijaviyligini belgilaydi; raqamli xizmatlar va malaka oshirish raqobatbardoshlikni ko'tarish uchun muhim vositadir; milliy siyosat va institutsional muhit esa markazlar samaradorligini ko'paytirish uchun talab qilinadigan shartlarni belgilaydi. Shu tamoyillardan kelib chiqib, maqolaning keyingi bo'limlarida amaliy va uslubiy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi kichik biznes markazlari faoliyatini tahlil qilish uchun birlamchi va ikkilamchi ma'lumotlarga tayanadi. Birlamchi ma'lumotlar so'rovnomalar, suhbatlar va kuzatuvlar orqali to'planadi, ikkilamchi ma'lumotlar esa rasmiy statistika, xalqaro tashkilotlar hisobotlari hamda ilmiy adabiyotlardan olinadi. Olingan ma'lumotlar qiyosiy tahlil, iqtisodiy-statistik usullar va kontent tahlili yordamida qayta ishlanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda milliy iqtisodiyot rivojlanishida kichik biznes markazlarining ahamiyati ortib bormoqda. Ular tadbirkorlik subyektlariga moliyaviy, huquqiy, axborot va konsalting xizmatlari ko'rsatish orqali biznes muhitining barqarorligini ta'minlaydi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, kichik biznes markazlari raqobatbardoshlikni oshirish, innovatsion texnologiyalarni joriy qilish va ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlashda muhim institut hisoblanadi. Shu bois, mazkur maqolada kichik biznes markazlari raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish masalasi yoritiladi.

Kichik biznes markazlari milliy iqtisodiyotda "lokomotiv" vazifasini bajaradi. Ular quyidagi yo'nalishlarda raqobatbardoshlikka hissa qo'shadi:

- resurslardan samarali foydalanish;
- tadbirkorlik subyektlari uchun innovatsion xizmatlarni yo'lga qo'yish;
- raqamli platformalar orqali bozorga kirish imkoniyatlarini kengaytirish;
- moliyaviy va huquqiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini ta'minlash.

Shuningdek, raqobatbardoshlik nazariyalari (M. Porterning "besh kuch modeli") asosida kichik biznes markazlari uchun strategik ustunlik yo'nalishlari belgilanishi mumkin.



O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik milliy iqtisodiyotning 55%dan ortiq ulushini ta'minlab, uning barqaror rivojlanishida hal qiluvchi o'rin egallamoqda. Kichik biznes markazlari esa bu jarayonda buxgalteriya, marketing, IT-outsorsing va huquqiy maslahatlar kabi qator xizmatlarni ko'rsatish orqali raqobat muhitini yanada rivojlantirishga hissa qo'shmoqda.

Kelgusidagi istiqbollarga nazar tashlar ekanmiz, kichik biznesni qo'llab-quvvatlashning bir nechta ustuvor yo'nalishlarini ajratib ko'rsatish mumkin. Moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish orqali yangi loyihalar va tashabbuslarni amalga oshirish imkoniyatlari yanada ortadi. Raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasini oshirish biznes jarayonlarini samarali tashkil qilish va bozordagi raqobatbardoshlikni kuchaytiradi. Kadrlar malakasini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar esa innovatsion g'oyalarni amaliyotga tatbiq etishga va xizmatlar sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlikni mustahkamlash esa kichik biznes faoliyatida yangi innovatsion yechimlar yaratish imkonini beradi (1-jadval).

1-jadval. O'zbekistonda kichik biznes markazlari faoliyati ko'rsatkichlari (2019–2023-yillar)

Yil	Markazlar soni	Xizmat turlari (o'rtacha)	Mijozlar soni (ming)	O'sish sur'ati (%)
2019	125	4	35	-
2020	143	5	41	12
2021	168	6	50	15
2022	190	6,5	59	18
2023	220	7	72	22

Amaliyotda qo'llaniladigan uslubiy yondashuvlar turli shakllarda namoyon bo'ladi. Xususan, outsorsing xizmatlari orqali buxgalteriya, IT, HR va marketing xizmatlarini markazlashtirish kichik biznes xarajatlarini kamaytirishga yordam beradi. Shu bilan birga, raqamli platformalardan foydalanish, ya'ni CRM, ERP va elektron hujjat aylanmasi tizimlarini joriy etish orqali samaradorlik sezilarli darajada oshiriladi.

Xorijiy tajriba ham muhim o'rin tutadi. Masalan, Janubiy Koreyada kichik biznes markazlari innovatsiya klasterlari bilan integratsiya qilingan bo'lib, bu ularning texnologik imkoniyatlarini kengaytiradi. Polshada esa raqamli outsorsing xizmatlari kichik biznesning eksport salohiyatini oshirishga xizmat qilgan. Turkiyada esa biznes markazlari tadbirkorlik inkubatorlari bilan hamkorlikda ishlash orqali yangi loyihalarni qo'llab-quvvatlash va ularning bozorga chiqishini yengillashtirishga erishmoqda.

Shunday qilib, xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, uslubiy yondashuvlarning to'g'ri tanlanishi kichik biznes faoliyatining samaradorligini oshirishda va uning raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Kichik biznes markazlari raqobatbardoshligini oshirish uchun quyidagi uslubiy tavsiyalar taklif qilinadi:

Diversifikatsiya – xizmat turlarini kengaytirish (buxgalteriyadan tashqari IT, HR, marketing xizmatlarini joriy etish).

Raqamli texnologiyalar – elektron platforma, onlayn maslahat, virtual buxgalteriya xizmatlarini yo'lga qo'yish.

Kadrlar tayyorgarligi – markaz xodimlarini xalqaro standartlar asosida qayta tayyorlash.

Ilmiy hamkorlik – universitetlar va ilmiy markazlar bilan hamkorlik orqali tadqiqot va innovatsiyalarni amaliyotga joriy etish.

Qonunchilik va davlat qo'llab-quvvatlashi – imtiyozli kreditlar, soliq yengilliklari va davlat–xususiy sheriklik asosida biznes markazlarini rivojlantirish.

Kichik biznes markazlari amaliyotini takomillashtirish zamonaviy nazariy ishlanmalarni o'z ichiga olgan tegishli metodik ta'minlashsiz imkonsiz. Masalan, buxgalteriya xizmatlarini ko'rsatuvchi outsorsing kompaniyalari faoliyatini tadqiq etish jarayonida "outsorsing monitoringi" tushunchasini kompleks ravishda o'rganishga bag'ishlangan ilmiy ishlar deyarli mavjud emasligi va outsorsing monitoringini o'tkazishdagi maqsad, vazifa hamda xususiyatlarga aniq talqin yo'qligi aniqlangan. Inglizcha "monitor" so'zidan kelib chiqqan "monitoring" tushunchasi nazorat, baholash va kuzatuv so'zlarining sinonimi hisoblanadi. Asosan, monitoring ikki jihatdan qaraladi: axborot olish, ommaviy kommunikatsiya vositalari yoki kuzatuv orqali ma'lumot yig'ish, ehtimoliy vaziyatlar haqida ogohlantirish va prognoz qilish.

Jahon amaliyotida kichik biznes markazlari funksiyalaridan biri bo'lgan buxgalteriya outsorsing bozori monitoringi yetakchi kompaniyalar uchun har yili "Expert RA" reyting agentligi tomonidan o'tkaziladi. Uning natijalari ushbu xizmatlar sohasida daromadlar o'sishining barqarorlashuvini ko'rsatadi. So'nggi yilda talab doimiy mijozlar hisobiga qo'llab-quvvatlangan bo'lsa, rivojlanish drayverlari mehnat qonunchiligi normalaridagi o'zgarishlar, buxgalteriya hajmining oshishi va personal lizingi tarqalishi hisoblanadi.



Kichik biznes markazlari xizmatlari sohasining rivojlanishi umumiy iqtisodiyot bilan chambarchas bog'liq. Dinamik bozor sharoitida agar biznes uchun samaradorlik, boshqaruvchanlik va shaffoflik masalalari birinchi o'rinda tursa, outsorsingga bo'lgan talab tez sur'atlarda o'sadi. Hozircha mahalliy biznes tomonidan outsorsingga ommaviy talab kuzatilmayapti, buxgalteriya outsorsingi segmenti asosan xorijiy kompaniyalar hisobiga o'smoqda. Umuman olganda, buxgalteriya outsorsingi yo'nalishlarining barchasida ijobiy o'sish sur'atlari kuzatilmoqda.

Reyting ishtirokchi kompaniyalarining eng katta daromad hajmi buxgalteriya va soliq hisobi yuritish bo'yicha kompleks xizmatlarga to'g'ri keladi. 2023-yil yakunlari bo'yicha umumiy daromad 2,6 mlrd so'mni yoki ro'yxatdagi umumiy tushumning 42 foizini tashkil etdi, uning o'sish sur'ati esa 27 foizni tashkil qildi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, xizmatlarga bo'lgan talab asosan doimiy mijozlar hisobiga, ayniqsa O'zbekistondagi xorijiy tashkilotlar tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. Bu tashkilotlarga biznes-protsesslarni outsorsing qilish modeli yaxshi tanish. Bizning fikrimizcha, buxgalteriya outsorsing xizmatlari bozorini monitoring qilish uning holatini nazorat qilish, buxgalteriya xizmatlariga bo'lgan talab va taklifni to'plash, tizimlashtirish va tahlil qilish, bozor rivojlanish tendensiyalarini aniqlash, yangi turdagi xizmatlarni ishlab chiqish va joriy etish chora-tadbirlari tizimidan iboratdir.

Kichik biznes markazlari monitoringi bir qator vazifalarni bajarishga yo'naltirilgan. Ularning asosiy maqsadi xizmat ko'rsatilayotgan mijozlarni saqlab qolish va ularning doimiy ehtiyojlarini qondirishdir. Shu bilan birga, buxgalteriya xizmatlari bozorida muayyan segmentda o'z imijini shakllantirish va mustahkamlash, xizmatlar hajmini oshirish, mijozlar ishonchini qo'llab-quvvatlash hamda outsorsing faoliyati samaradorligini oshirish ham monitoringning muhim yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Shunday qilib, buxgalteriya outsorsing bozorida monitoring nafaqat hozirgi jarayonlarni kuzatish, balki kelgusidagi rivojlanish istiqbollari belgilash uchun ham muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, xizmatlar monitoringi va mijozlarning maqsadli auditoriyasini monitoring qilishda outsorsinglar maqsad va vazifalarining turli-tumanligiga qaramay, ularni amalga oshirish vositalari va metodologiyasi ancha o'xshash bo'ladi. Masalan, monitoring tadqiqotlari uchun asosiy material sifatida ma'lumotlar xizmat qiladi.

Kichik biznes markazlari milliy iqtisodiyotning barqaror va raqobatbardosh rivojlanishi uchun muhim institut hisoblanadi. Ular tadbirkorlik subyektlariga moliyaviy, huquqiy, axborot va innovatsion qo'llab-quvvatlash ko'rsatib, raqamli iqtisodiyot sharoitida biznes muhitining samaradorligini ta'minlaydi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, kichik biznes markazlari soni va xizmatlar turi yildan-yilga ortib bormoqda, biroq ularning to'liq salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun davlat qo'llab-quvvatlashi va samarali uslubiy yondashuvlar zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ризаева Н. Ўзбекистонда кичик бизнес ривожланишининг хусусиятлари. — American Journal of Business Practice, т.2, №4, 2025.
2. Ўзбекистонда аутсорсингни ташкил этишнинг афзалликлари. — Global Research Network (AJEBM), 2024/2025.
3. Мамлакат иқтисодий ривожланишида кичик бизнес ва тadbirkorlikning роли. — JMMF Uzbekistan, илмий мақола, 2025.
4. Собирова М.Н., Бакиева И.А. Ўзбекистон Республикасида кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlikни ривожлантириш йўллари. — Eurasian Research Bulletin, т.15, декабрь, 2022.
5. Хусанов Ч.К., Эркабоев А.Б. Ўзбекистонда халқаро аутсорсингни ривожлантириш истиқболлари. — Dergipark, 2023.
6. Ўзбекистонда хусусий сектор рақобатбардошлигини ошириш учун рақамли кўникмалар. — OECD ҳисоботи, Париж, 2023.
7. Ўзбекистонда кичик бизнес ривожланишининг динамикаси ва истиқболлари. — CAJITMF Journal, 2024.
8. Қаражанова Г.Т. Ўзбекистоннинг реал секторидида кичик бизнес иқтисодий ривожланиш муаммолари. — International Journal of Diplomacy and Political Relations, 2024.
9. Юлчиева Х., Баширу Джибрил А. Ўзбекистонда кичик ва ўрта бизнес ривожланиши учун маркетинг стратегияси асослари. — International Journal of Entrepreneurship, 2024.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>